

ADABIYOT DARSLARIDA HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE’RIYATINI O‘QITISH METODIKASI

Isomiddinova Muxlisa

Namangan davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
magistranti

E-mail: misomiddinova404@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20009873>

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining adabiyot darslarida Halima Xudoyberdiyeva she’riyatini o‘qitishning metodik asoslari yoritiladi. Shoirra ijodini o‘rganishda lirik matnni ifodali o‘qish, muammoli savollar asosida tahlil qilish, obrazlar ustida ishlash, guruhli muhokama, klaster, INSERT, badiiy tahlil, reflektiv yozuv va baholash mezonlaridan foydalanish imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi. Maqolada 9-sinf “Adabiyot” darsligida berilgan “Dorilomon kunlar keldi”, “Begim, sizni tabiat...” hamda “Shunchaki” she’rlari asosiy metodik material sifatida tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** Halima Xudoyberdiyeva, adabiyot darsi, lirik asar, she’riy matn, ifodali o‘qish, muammoli ta’lim, badiiy tahlil, obraz, metodika, 9-sinf darsligi*

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ПОЭЗИИ ХАЛИМЫ ХУДОЙБЕРДИЕВОЙ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ

***Аннотация:** В данной статье освещаются методические основы преподавания поэзии Halima Xudoyberdiyeva на уроках литературы в общеобразовательных школах. Показаны возможности использования выразительного чтения лирического текста, анализа на основе проблемных вопросов, работы над образами, группового обсуждения, методов кластера, INSERT, художественного анализа, рефлексивного письма и критериев оценивания при изучении творчества поэтессы. В качестве основного методического материала анализируются стихотворения «Dorilomon kunlar*

keldi», «Begim, sizni tabiat...» u «Shunchaki», predstavlennye v uchebnike literatury dlya 9 klassa.

Ключевые слова: *Халима Худойбердиева, урок литературы, лирическое произведение, поэтический текст, выразительное чтение, проблемное обучение, художественный анализ, образ, методика, учебник 9 класса*

METHODOLOGY OF TEACHING HALIMA KHUDOYBERDIYEVA’S POETRY IN LITERATURE CLASSES

Abstract: *This article highlights the methodological foundations for teaching the poetry of Halima Xudoyberdiyeva in literature classes at secondary schools. It demonstrates the possibilities of using expressive reading of lyrical texts, analysis based on problem-solving questions, character and image analysis, group discussions, cluster and INSERT methods, literary analysis, reflective writing, and assessment criteria in studying the poetess’s works. The poems “Dorilomon kunlar keldi,” “Begim, sizni tabiat...,” and “Shunchaki,” included in the 9th-grade literature textbook, are analyzed as the main methodological material in the article.*

Keywords: *Halima Xudoyberdiyeva, literature lesson, lyrical work, poetic text, expressive reading, problem-based learning, literary analysis, image, methodology, 9th-grade textbook*

Adabiyot ta’limi o‘quvchining ma’naviy kamoloti, estetik didi, mustaqil fikrlashi va badiiy matnni anglash qobiliyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Maktab adabiyot darslarida lirik asarlarni o‘qitish, ayniqsa, o‘quvchining ichki kechinmalarni his qilishi, obrazli tafakkur yuritishi va badiiy so‘zning ta’sir kuchini anglashiga xizmat qiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun yaratilgan “Adabiyot” darsligida Halima Xudoyberdiyeva ijodiga alohida o‘rin berilgan. Darslikning mundarijasida “Halima Xudoyberdiyeva”, “Dorilomon kunlar keldi”, “Begim, sizni tabiat...” va “Shunchaki” mavzulari ketma-ket joylashtirilgan. Bu holat shoira ijodini faqat biografik ma’lumot sifatida emas, balki bevosita she’riy matnlar asosida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.[1] Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida ayol

qalbining nozik kechinmalari, ona siymosining ulug‘ligi, hayotga muhabbat, yurtga sadoqat, insoniy dard va g‘urur kuchli badiiy ohangda ifodalanadi. 9-sinf “Adabiyot” darsligida shoira she‘riyatida “inson ko‘nglidagi murakkab his-tuyg‘ular” va “ruhiyatning murakkab manzaralari” ta’sirchan aks etishi alohida ta’kidlanadi.[1. – B. 239-240] Demak, ushbu mavzuni o‘qitishda o‘qituvchi she‘r mazmunini oddiy qayta hikoya qildirish bilan cheklanmasligi, balki o‘quvchini badiiy matn ichiga olib kirishi, undagi ruhiy holat, obraz, ohang va poetik g‘oyani anglashga yo‘naltirishi kerak.

Bugungi adabiyot ta’limida o‘quvchining tayyor ma’lumotni yodlashi emas, balki matnni mustaqil o‘qishi, tushunishi, tahlil qilishi, baholashi va o‘z munosabatini bildira olishi muhim hisoblanadi. Ayniqsa, lirik asarni o‘qitishda bu talab yanada kuchayadi. Chunki she‘rda voqea-hodisa batafsil bayon qilinmaydi; unda ko‘proq ruhiy holat, ichki kechinma, obraz va ramziy ma’no yetakchilik qiladi. Shuning uchun Halima Xudoyberdiyeva she‘rlarini o‘qitishda o‘quvchilarga “she‘r nima haqida?” degan savol bilan birga “shoira bu tuyg‘uni qanday ifodalagan?”, “qaysi obraz orqali ruhiy holat ochilgan?”, “takror, ohang va so‘z tanlovi qanday ta’sir uyg‘otgan?” kabi savollar ham berilishi zarur. Halima Xudoyberdiyeva she‘riyati dars jarayonida o‘quvchiga bir necha yo‘nalishda tarbiyaviy va estetik ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchidan, “*Dorilomon kunlar keldi*” she‘ri orqali ona, hayot, tinchlik, shukronalik va tarixiy xotira tushunchalari yoritiladi.

Ikkinchidan, “*Begim, sizni tabiat...*” she‘rida ayol qalbining iztirobi, sadoqat va rashk kabi murakkab ruhiy holatlar badiiy tasvirlanadi.

Uchinchidan, “*Shunchaki*” she‘ri orqali shoira san’atga, hayotga, muhabbatga va insoniy tuyg‘ularga yuzaki munosabatda bo‘lmaslik g‘oyasini ilgari suradi.

Darslikda ushbu she‘rlar bilan birga savol va topshiriqlar ham berilgan bo‘lib, ular o‘quvchini she‘r mazmunini mustaqil anglashga yo‘naltiradi.[1. – B. 241-245]

Adabiyot o‘qitish metodikasida lirik asarlarni o‘rganish alohida metodik yondashuvni talab qiladi. Epik asarlarda voqea, obrazlar tizimi va syujet tahlili

yetakchi o‘rinda tursa, lirik asarlarda ruhiy holat, ohang, tasvir, ramz, poetik til va lirik qahramon kechinmasi markaziy ahamiyat kasb etadi. Q. Husanboyeva va R. Niyozmetovanning “Adabiyot o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasida ham lirik asarlarni o‘rganish adabiyot ta‘limining alohida bo‘limi sifatida berilgan. Mazkur qo‘llanmaning mundarijasida “Lirik asarlarni o‘rganish”, “Adabiy ta‘limda mustaqil fikrlashning ahamiyati”, “Adabiy ta‘lim metodlari, usullari, shakllari hamda ularning o‘zaro aloqadorligi”, “Muammoli ta‘lim” kabi bo‘limlar keltirilgan.[2] Bu metodik qarashlar Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatini o‘qitishda ham muhim ahamiyatga ega. Chunki shoira she‘rlarida ko‘pincha ochiq voqea emas, balki ichki dramatism, yurak iztirobi, ruhiy qarama-qarshilik va poetik obraz asosiy o‘ringa chiqadi. Masalan, “Begim, sizni tabiat...” she‘rida lirik qahramonning ruhiy holatini faqat mazmun orqali emas, balki murojaat shakli, takror, tashbih, keskin ohang va dramatik tasvirlar orqali anglash mumkin. Adabiyot darslarida badiiy matnni tahlil qilishda o‘quvchining mustaqil fikrlashi ham muhim sanaladi. O‘qituvchi matn yuzasidan tayyor xulosani bermasligi, balki o‘quvchini savol, muammo, taqqoslash, dalil izlash va munosabat bildirish orqali xulosaga olib kelishi kerak. Shuning uchun Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatini o‘qitishda o‘qituvchi quyidagi metodik yo‘nalishlarga tayanishi maqsadga muvofiq:

- a) she‘rni ifodali o‘qish;
- b) matndagi asosiy obrazlarni aniqlash;
- c) lirik qahramon ruhiyatini tahlil qilish;
- d) badiiy vositalarni topish va izohlash;
- e) muammoli savollar orqali fikrlashga undash;
- f) o‘quvchining shaxsiy munosabatini shakllantirish;
- g) yozma refleksiya orqali xulosalash.

Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatini o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlar

1. “Ifodali o‘qish” metodi

Lirik asarni o‘qitishda birinchi bosqich — ifodali o‘qishdir. Halima Xudoyberdiyeva she‘rlari kuchli hissiy ohangga ega bo‘lgani uchun ularni oddiy, bir xil ohangda o‘qish she‘rning ta‘sir kuchini pasaytiradi. O‘qituvchi avval she‘rni o‘zi

ifodali o‘qib beradi. Keyin o‘quvchilarga she‘rni bandlarga bo‘lib, turli ohanglarda o‘qitadi. Masalan, “Dorilomon kunlar keldi” she‘rida ona bilan muloqot, ichki iztirob va hayotga da‘vat ohangi mavjud. Shu sababli o‘quvchi she‘rni o‘qishda mehr, iltijo, shukronalik va ichki dardni sezishi kerak.

Ifodali o‘qish jarayonida quyidagi savollar beriladi:

1. She‘r qanday kayfiyat bilan boshlanadi?
2. Qaysi misralarda onaga murojaat kuchliroq seziladi?
3. Ovoz ohangi qayerda pasayadi, qayerda kuchayadi?
4. Shoiraning ichki kechinmasi qanday tovush va pauzalar orqali ochiladi?

Bu savollar o‘quvchini she‘rni eshitish, his qilish va anglashga tayyorlaydi.

2. “Muammoli savollar” metodi

Muammoli savollar o‘quvchini mustaqil fikrlashga undaydi. “Dorilomon kunlar keldi” she‘rini o‘rganishda quyidagi savol markaziy muammo sifatida qo‘yilishi mumkin:

Shoira nega dorilomon kunlarni onaga murojaat orqali ifodalaydi?

Bu savol orqali o‘quvchi ona obrazi, tarixiy xotira, hayot qadri va shukronalik tushunchalari haqida o‘ylaydi. Darslikda ham “Dorilomon kunlar” deganda shoira nimani ko‘zda tutgani, onaning so‘lg‘in lablari, “qorli kunlar” va “lolarang dunyo” kabi obrazlarning ma‘nosini izohlashga qaratilgan savollar berilgan. [1. – B. 241]

“Begim, sizni tabiat...” she‘rida esa quyidagi muammoli savollar qo‘yilishi mumkin:

1. Lirik qahramonning iztirobi nimadan kelib chiqadi?
2. “Begim” murojaati she‘rga qanday milliy va hissiy ohang beradi?
3. She‘rda rashk zaiflikmi yoki sadoqat ifodasimi?
4. Shoira ayol qalbining murakkabligini qaysi obrazlar orqali ochadi?

“Shunchaki” she‘rida esa asosiy muammo quyidagicha belgilanadi:

Shoira nima uchun “shunchaki” yashash, sevish, kulish, yig‘lash va yozishni inkor qiladi?

Bu savol o‘quvchini she‘rning g‘oyaviy markaziga olib kiradi. Chunki mazkur she‘rda shoiraning hayot va ijodga talabchan munosabati ifodalanadi.

3. “Klasster” metodi

Klaster metodi mavzuga kirish qismida samarali bo‘ladi. Dars boshida doskaga “Halima Xudoyberdiyeva she’riyati” degan markaziy tushuncha yoziladi. O‘quvchilar undan tarqaluvchi tushunchalarni aytadilar:

Ona - Vatan - ayol qalbi - izzat - sadoqat - shukronalik - hayot - samimiyat - ijod - dard - g‘urur.

So‘ng o‘qituvchi ushbu tushunchalarni she’rlar bilan bog‘laydi. Masalan, “ona” va “shukronalik” tushunchalari “Dorilomon kunlar keldi” she’ri bilan, “ayol qalbi” va “sadoqat” tushunchalari “Begim, sizni tabiat...” she’ri bilan, “ijod” va “samimiyat” tushunchalari esa “Shunchaki” she’ri bilan bog‘lanadi.

4. “INSERT” metodi

INSERT metodi she’rni o‘qish jarayonida o‘quvchining faol fikrlashini ta’minlaydi. O‘quvchilarga she’r matni ustida quyidagi belgilar bilan ishlash topshiriladi:

Belgi	Ma’nosi
“+”	Men bu fikrni tushundim
“?”	Bu joy menga tushunarsiz
“!”	Bu misra menga kuchli ta’sir qildi
“*”	Bu misrada muhim obraz bor

Masalan, “Shunchaki” she’rini o‘qishda o‘quvchilar “shunchaki” so‘zining takroriga alohida e’tibor beradi. Ular bu so‘z oddiy takror emas, balki shoironing hayotga yuzaki munosabatga qarshi estetik noroziligini bildirayotganini anglaydilar.

5. “Guruhli tahlil” metodi

Guruhli tahlil o‘quvchilarning hamkorlikda ishlash, fikr almashish va matndan dalil topish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Sinf 4 guruhga bo‘linadi:

Guruh	Vazifa
1-guruh	She’rning asosiy g‘oyasini anglaydi
2-guruh	Obraz va ramzlarni topadi
3-guruh	Lirik qahramon ruhiyatini tahlil qiladi

4-guruh	Badiiy vositalar va takrorlarni izohlaydi
---------	---

Masalan, “Begim, sizni tabiat...” she’rida 1-guruh sadoqat va iztirob g‘oyasini, 2-guruh “begim”, “Farhod”, “Shirin”, “mix”, “qon”, “lolazor” kabi obrazlarni, 3-guruh lirik qahramonning ichki iztirobini, 4-guruh esa murojaat, takror, tashbih va dramatik ohangni tahlil qiladi.

6. “Reflektiv yozuv” metodi

Dars yakunida o‘quvchilar qisqa yozma refleksiya bajaradilar. Bu topshiriq ularning shaxsiy munosabatini aniqlashga yordam beradi. Quyidagi mavzulardan biri tanlanadi:

- “Halima Xudoyberdiyeva she’rida meni o‘ylantirgan obraz”
- Men ‘shunchaki’ yashamaslik deganda nimani tushunaman?”
- “Ona obrazining she’rdagi ma’nosi”
- “Shoira she’rlarida ayol qalbining tasviri”

Bu yozma ish o‘quvchini badiiy matndan hayotiy xulosaga olib chiqadi.

Darslikdagi she’rlar asosida metodik tahlil

“Dorilomon kunlar keldi” she’rini o‘qitish

“Dorilomon kunlar keldi” she’ri ona obraziga murojaat orqali hayot, tinchlik, shukronalik va tarixiy xotira g‘oyalarini ifodalaydi. She’rda ona oddiy lirik obraz emas, balki avlodlar xotirasi, sabr, dard va hayotga umid timsoli sifatida gavdalanadi. Darslikda ushbu she’r yuzasidan “Dorilomon kunlar” iborasi, onalarga xos odat, so‘lg‘in lablar, “qorli kunlar” va “lolarang dunyo” kabi obrazlarni izohlashga qaratilgan savollar berilgan. [1]

Bu she’rni o‘qitishda quyidagi metodik yo‘nalish samarali bo‘ladi:

- 1) O‘qituvchi she’rning umumiy kayfiyatini aniqlatadi.
- 2) O‘quvchilar ona obraziga oid so‘z va iboralarni topadi.
- 3) “Dorilomon kunlar” iborasining tarixiy va ruhiy ma’nosi tahlil qilinadi.
- 4) O‘quvchilar she’rni hayotiy tajriba bilan bog‘laydi.
- 5) Yakunda “Onaga murojaat orqali Vatan va hayot qadri qanday ochilgan?”

savoliga yozma javob yoziladi.

“Begim, sizni tabiat...” she’rini o‘qitish

“Begim, sizni tabiat...” she’ri ayol qalbining nozik, ammo kuchli ruhiy holatini ochib beradi. She’rda muhabbat, rashk, sadoqat, iztirob va g‘urur birgalikda tasvirlanadi. Darslikda ushbu she’rni “sokin va ta’sirli ohangda” o‘qish, qiz qalbining nozik tebranishlari qaysi satrlarda berilganini aniqlash, “begim” so‘zining milliylik va samimiylikni kuchaytirishdagi o‘rnini tushuntirish kabi topshiriqlar keltirilgan. [1. – B. 243-244]

Bu she’rni o‘qitishda o‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi tahlil yo‘nalishlarini beradi:

- murojaat shakli: “begim” so‘zining hissiy vazifasi;
- ruhiy holat: iztirob, rashk, sadoqat;
- badiiy obrazlar: Farhod, Shirin, mix, tig‘, qon;
- takror: birinchi va oxirgi misralarning vazifasi;
- milliylik: murojaat madaniyati va ayol qalbi ifodasi.

Bu she’rni tahlil qilishda ehtiyotkorlik zarur. O‘qituvchi she’rni yuzaki sevgi mavzusi sifatida emas, balki ayol ruhiyatining murakkab badiiy ifodasi sifatida talqin qilishi kerak.

“Shunchaki” she’rini o‘qitish

“Shunchaki” she’rida shoira yuzaki yashash, yuzaki sevish, yuzaki ijod qilish va samimiyatsiz munosabatni rad etadi. She’rda “shunchaki” so‘zining takrorlanishi kuchli poetik vazifa bajaradi. Bu takror orqali shoira hayotning har bir hodisasiga chin yurakdan yondashish kerakligini ta’kidlaydi.

Darslikda “Shunchaki” she’ri yuzasidan birinchi band ma’nosini anglash, “kuylagim kelmas” mazmunini izohlash, “suymoq” va “ozor bermoq” munosabati, chinakam kulish va astoydil yig‘lash haqida fikr yuritish kabi savollar berilgan. (8)

Ushbu she’rni o‘qitishda quyidagi topshiriqlar foydali:

- 1) “Shunchaki” so‘zining takrorlanish sababini aniqlang.
- 2) Shoira qaysi holatlarni “shunchaki” bo‘lishini istamaydi?
- 3) She’rda ijodkorlik mas’uliyati qanday ifodalangan?
- 4) “Shunchaki yozmoq” tushunchasini o‘z fikringiz bilan izohlang.

5) Hayotda “shunchaki” bo‘lmasligi kerak bo‘lgan uchta holatni yozing.

Xulosa qilib aytganda, Halima Xudoyberdiyeva she‘riyati umumiy o‘rta ta‘lim maktablari adabiyot darslarida o‘quvchilarning estetik didi, badiiy tafakkuri va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shoira she‘rlarini o‘qitishda ifodali o‘qish, muammoli savollar, klaster, INSERT, guruhli tahlil va reflektiv yozuv kabi metodlardan foydalanish o‘quvchilarning lirik matnni chuqurroq anglashiga xizmat qiladi. Ayniqsa, “Dorilomon kunlar keldi”, “Begim, sizni tabiat...” va “Shunchaki” she‘rlari orqali ona obrazi, ayol qalbi, samimiyat, sadoqat va hayotga mas‘uliyat kabi tushunchalar o‘quvchilarga ta‘sirchan tarzda yetkaziladi. Shu bois Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatini metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan darslar asosida o‘qitish adabiyot ta‘limi samaradorligini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. *Adabiyot: umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik*. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 4-nashr. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. -368 b.
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. *Adabiyot o‘qitish metodikasi*. O‘quv qo‘llanma. Ikkinchi nashr. -Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020. - 352 b.
3. To‘xliyev B. *Adabiyot o‘qitish metodikasi*. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2006.
4. Mirqosimova M. *O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari*. - Toshkent: “Fan”, 2006.
5. Yo‘ldoshev Q., Madayev O., Abdurazzoqov A. *Adabiyot o‘qitish metodikasi*. - Toshkent: Respublika o‘quv-metodik markazi, 1994.
6. Xudoyberdiyeva H. *Muqaddas ayol*. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987.
7. Xudoyberdiyeva H. *Saylanma*. - Toshkent: “Sharq”, 2000.